

INSON VA BIOSFERA O'RTASIDAGI GLOBAL MUAMMOLARGA SABAB BO'LAYOTGAN MUNOSABATLAR

Majitova M.A.¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi kundagi eng global muammolardan biri – insonning biosferaga yetkazayotgan salbiy ta'siri haqida fikrlar keltirilgan. Uzoq yillardan buyon dunyoda bo'layotgan iqlimiy o'zgarishlar keng ko'lamda yoritilgan. Muammoga yechimlar ham qisqacha tarzda bayon qilingan.

Kalit so'zlar: biosfera, insoniyat, tabiat, hayot, sifat, atmosfera, gidrosfera, atrof-muhit, ekologiya, Orol dengizi, cho'llashuv.

Inson va biosfera o'rtasidagi munosabatlar – bu o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik va o'zaro mas'uliyat munosabatlarini aks ettiradi. Insoniyat o'z faoliyatini biosfera bilan muvozanatda olib borishi, tabiatga ozor yetkazmasligi va kelajak avlodlar uchun barqaror va sog'lom muhitni ta'minlashi zarur. Buning uchun, jamiyatimizning har bir a'zosi o'z mas'uliyatini his qilishi va atrof –muhitni muhofaza qilishda faol ishtirok etishi kerak.

Biosfera – bu Yerning atmosfera, gidrosfera va litosferasining hayot mavjud bo'lgan qismlarini o'z ichiga olgan tirik organizmlar yashaydigan qobig'idir. Inson esa biosferaning bir qismi bo'lib, uning faoliyati biosferaga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonning biosferadagi o'rni:

Inson biosferaning bir qismi bo'lib, uning kelajagi biosferaning holati bilan chambarchas bog'liq. Insoniyat biosferani saqlash va uning barqarorligini ta'minlash uchun mas'uldir. Bu mas'uliyatni amalga oshirish uchun insoniyat quyidagi yo'nalishlarda harakat qilishi kerak:

- Barqaror rivojlanish: Barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish, iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan muvozanatda olib borish.

- Ekologik ta'lim: Jamiyatning ekologik savodxonligini oshirish, insonlarga atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga yordam berish.

O'tgan asrlardan beri yadro urushlari, global iqtisodiy inqirozlar, epidemiyalar, suv toshqinlari va cho'llanish kabi muammolar bilan kurashib kelinmoqda. Yangi asr boshlanishida ozon qatlamining yemirilishi bu muammolar qatoriga qo'shilib, uning salbiy oqibatlari tobora jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, ozon qatlamining asosiy qismi stratosferada, yer yuzidan o'rtacha o'n besh km balandlikda joylashgan. Qutblarda esa bu masofa atigi sakkiz km. Eng muhimi, yigirma km dan yigirma besh km gacha bo'lgan besh km qismida ozonning eng yuqori zichligi kuzatiladi. Ozon tashqi ko'rinishdan katta qatlamni tashkil etsa-da, aslida uning zichligi past. Agar u yer yuzidagi havo kabi zichlashtirilsa, atigi to'rt mm qalinlikdagi yupqa plyonka hosil bo'lishi mumkin.

So'nggi yigirma besh yil ichida odamlarda teri saratoni, ko'z kasalliklari va immun tizimining zaiflashuvi kabi kasalliklar ko'payganligi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, o'simliklar va hayvonot olamida ham sezilarli salbiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida hosildorlik pasaygan. Kislorod manbai bo'lgan daraxtlarning barglari kichrayib, fotosintez jarayoni qiyinlashmoqda. Bularning barchasiga ozon qatlamidagi teshiklar sabab bo'lmoqda, chunki ozon Yer atmosferasining bir qismi bo'lib, uni quyoshning zararli ultrabinafsha nurlaridan himoya qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston misolida quyidagi ishlar amalga oshirilishi taklifini bildiraman:

Maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib Oliy ta'limning yuqori bosqichigacha ekologiya, jumladan ozon qatlamini muhofaza qilishga doir dars va mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish;

OAV va media makonni ekologik muammolar hamda ularni bartaraf etishga oid sifatli kontentlar bilan boyitish;

Respublika bo'ylab har oy eng kamida bir marta "Avtomobilsiz kun" aksiyalarini o'tkazish;

"Yashil O'zbekiston-2040" konsepsiyasini ishlab chiqish;

Ekologik muammolar keltirib chiqarayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga javobgarlikni kuchaytirish;

Ekologik toza va energiya tejamkor korxona va zavodlar faoliyatini rag'batlantirish;

Hududlarda jahon, xususan Finlyandiya davlati tajribasidan kelib chiqib velosiped yo'laklarini bunyod etish va boshqalar.

¹ Majitova M.A., 2-kurs talabasi

Inson faoliyatining salbiy oqibatlari quyidagicha namoyon bo'ladi:

Sanoat va boshqa inson faoliyati tufayli atmosferaga ko'plab issiqxona gazlarining chiqarilishi global isish, qurg'oqchilik, suv toshqini va dengiz sathining ko'tarilishi kabi oqibatlarga olib keladigan iqlim o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'rmonlarning kesilishi (deforestatsiya) ekotizimlarning barqarorligini buzadi, biologik xilma-xillikni kamaytiradi, tuproq eroziyasini kuchaytiradi va iqlim o'zgarishini tezlashtiradi.

Sanoat, qishloq xo'jaligi va maishiy chiqindilarning suv havzalariga tushishi natijasida ichimlik suvi ta'minotida muammolar yuzaga keladi va suv ekotizimlariga zarar yetadi.

Sanoat chiqindilari, kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlardan foydalanish tuproqning ifloslanishiga olib keladi, bu esa hosildorlikning pasayishiga va tuproq ekotizimlarining buzilishiga sabab bo'ladi. Sanoat, transport va boshqa manbalardan atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishi havo ifloslanishiga olib keladi, bu esa inson salomatligiga zarar yetkazadi va ekotizimlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inson faoliyati natijasida o'simlik va hayvonot dunyosining ko'plab turlari yo'qolib ketish arafasida turibdi, yashash muhitining buzilishi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelmoqda.

Inson faoliyati natijasida hosil bo'ladigan doimiy chiqindilar, ayniqsa plastik chiqindilar, atrof-muhitni ifloslantiradi va ekotizimlarning buzilishiga sabab bo'ladi.

Shu qatoriga dengiz va suv avzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlaminin yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi natijasida qishloq xo'jaligida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Global muammolarga qarshi kurashda jahon hamjamiyatini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni anglash mumkinki, global muammo – ozon qatlaminin himoya qilish barchamiz uchun oldimizdagi nihoyatda muhim bo'lgan vazifa. Ushbu vazifani ortga surish, befarqlik yoki uni shu bugun amalga oshirmaslik ona sayyoramizni halokatga mahkum etish bilan barobardir. Ushbu zararlarni kamaytirish uchun insoniyat barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda ekologik jihatdan mas'uliyatli bo'lishi, resurslardan oqilona foydalanishi, chiqindilarni kamaytirishi va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Otaboyev Sh., Nabiyev M., *Inson va biosfera, Toshkent, 1995; Sanginov S, Filosofskiy analiz modelirovaniya globalnix protsessov, Toshkent, 1996.*
- [2]. <https://yuz.uz/uz/news/ona-sayyoramizga-xavf-solayotgan-global-muammo-sabablar-va-echimlar-sayti>
- [3]. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Global_muammolar_sayti